# BUXORO VILOYATI SHOFIRKON TUMANI TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZIMI

**Ozodjon Islomov, Abbos Yaxshiboyev, Farrux Norqulov**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Moliya fakulteti MMT-86 guruh talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada viloyat, tuman va shaxarlarda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan "Tashabbusli budjetlashtirish jarayoni" uni amalga oshirish mexanizmi va moliyalashtirish amaliyoti yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, loyihalarni amalga oshirish, mahalliy budjet, taklif berish, g'olib loyihalarni aniqlash, mablag' ajratish, ovoz berish.

Biz 2021-2023-yillar davomida Buxoro viloyati Shofirkon tumani tashabbusli budjetlashtirish jarayonlarini o'rganib chiqdik. Unda "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar, tadbirlarni moliyalashtirishga sarflangan mablag'lar va iqtisod qilinib tejab qolingan hamda qoldiq mablag'larni yillar kesimida quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz.

**1-jadval**

**Buxoro viloyati Shofirkon tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori[1] (mln so'mda)**

| T/r | Ko'rsatkich nomi | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | | 1 532,60 | 1 329,12 |
| 2. | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar | 7 739,49 | 14 075,40 | 30 303,37 |
| 3. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar | 7 638,00 | 13 408,00 | 27 769,00 |
| 3.1. | Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'lar | 3 282,50 | 11 276,07 | 23 466,11 |
| | | | | |
| 3.2. | Hisobvaraqlardagi qoldiq mablag'lar | 4 355,50 | 1 806,77 | 4 302,89 |
| 4. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'lar | 408 091 | 1 329 122 | 2 534 373 |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rib turibmizki tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni 2021 yildan boshlanganligi sababli ushbu yilda yil boshiga qoldiq mavjud emas. 2021-yil hisobot yili davomida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga 7 739.49 mln so'm mablag' o'tkazilgan bo'lib undan 7 638.00 mln so'mi tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib,

[1] https://openbudget.uz/boards/reports

faqatgina 3 282.5 mln so'mi bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan. Qolgan 4 355.5 mln so'm mablag'lar hisobvaraqalarda qolgan. 2022-yildan boshlab "Tashabbusli budjetlashtirish" jarayoni ikki bosqichda o'tkazilganligi sababli 2021-yilga qaraganda jamg'armaga o'tkazilgan pullar sarflangan pullar ham sezilarli darajada oshganligini guvohi bo'ldik. 2023-yilda esa "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga 30 303.37 mln so'm mablag' o'tkazilgan bo'lib shundan 27 769.00 mln so'mi tadbirlarni moliyalashtirishga qaratilib, bajarilgan ishlarga 23 466.11 mln so'mi xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan. Bunda ham ko'rib turibmizki "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da 2 534.37 mln so'm mablag' qolgan bo'lsa xisobvaraqlardagi qolgan mabllag'lar 4 302.89 mln so'mni tashkil qilgan.

Quyidagi jadval orqali tumanning tashabbusli budjetlashtirish natijasida bir nachta amalga oshirilgan tadbirlar va ularga sarflangan mablag'lar hamda moliyalashtirilgan takliflar haqida tanishib chiqamiz. Bunda 2021-yilda birinchi marotaba hamda bir marta tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni bo'lganligi sababli boshqa yillarga qaraganda sezilarli darajada kam mablag' sarflanganligini ko'rishimiz mumkin.

**2-jadval**

**Buxoro viloyati Shofirkon tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar**

| T/r | Tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | | | Sarflangan mablag' (ming so'mda) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
| 1. | Hududiy ichki yo'llar | 2 | 3 | 2 | 251,10 | 1 750,51 | 2 142,13 |
| 2. | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash | 8 | 11 | 19 | 2 244,60 | 6 844,61 | 17 170,48 |
| 3. | Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 1 | 1 | | 9,00 | 416,13 | |
| 4. | Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 1 | 1 | 2 | 446,60 | 488,63 | 2 194,15 |
| 5. | Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash | | | | | | |
| 6. | Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari | | | | | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 7. | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish) | 1 | 2 | 1 | 331,20 | 1 013,60 | 1 004,02 |
| 8. | Boshqa tadbirlar | | 2 | 2 | | 767,44 | 955,33 |
| | **JAMI** | **13** | **20** | **26** | **3 282,50** | **11 280,92** | **23 446,11** |

2-jadval Buxora viloyati Shofirkon tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar to'grisidagi ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak ushbu 20212023 yillar davrida jami 2021-2023-yillar kesimida mos ravishda 13, 20 va 26 ta takliflar moliyalashtirilgan bo'lib ulardan eng ko'pini "Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash" loyihalari tashkil qiladi va bu loyiha uchun 2021-yil uchun 2 244.6 mln so'm mablag' sarflangan bo'lsa 2022-2023 yillarda esa 6 844.61 mln va 17 170.48 mln so'm mablag' sarflangan. Bu ko'rsatkich (2023-yil) 2021-yil ga qaraganda deyarli 7.65 marta ko'p mablag' sarflanganligini ko'rsatib turibdi.

2021-yilda jami moliyalashtirilgan takliflar 3 282.5 mln so'm mablag'lar sarflangan bo'lib 2022-yildagi moliyalashtirilgan takliflarga sarflangan mablag'larning 29.1% ini tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda jami tadbirlarga sarflangan mablag' 11 280.92 mln so'mni tashkil qilgan bo'lib 2023-yilda sarflangan mablag'(23 446 108 so'm)larning 48.12%ini tashkil etadi

Bundan tashqari Buxoro viloyati Shofirkon tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari haqidagi statistik ma'lumotlarni 3-jadval orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Unda tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi va tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar qancha ekanligi haqida yillar kesimida o'rganamiz.

3-jadval

**Buxoro viloyati Shofirkon tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari**

**(mln so'mda)**

| **Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari** | **2021-yil** | **2022-yil** | **2023-yil** |
|---|---|---|---|
| Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar | | 8692.11 | 10988.51 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar | | 2453 | 7593.83 | 19314.86 |
| Shu jumladan | Erkin qoldiq mablag'lari | 110 | 1722.9 | 886 |
| | Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi | 2343.6 | 1011.27 | 1954.1 |
| | Iqtisod qilingan mablag'lar | | 2999.66 | 3013.1 |
| Qo'shimcha ajratilgan | PQ-117ga asosan | | | 7100 |
| | PQ-409ga asosan | | 1320 | 7161.65 |
| **Jami ajratiladigan mablag'lar** | | **2453.6** | **15745.92** | **30 303.37** |

Bizga ma’lumki Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalar Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar va Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lari hisoblanadi. Bunda Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 2022-yilda 8 692.11 mln so’mni tashkil qilgan bo’lsa 2023-yilda bu ko’rsatkich 10 988.51 mln so’mni tashkil etgan, tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lari esa yillar kesimida mos ravishda 2 453.6 mln, 7 593.83 mln va 19 314.86 mln so’mni tashkil qiladi. Erkin qoldiq mablag'lar, Iqtisod qilingan mablag'lar, Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi va boshqalar ham shular jumlasidandir. Yana shuni takidlash joizki “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 октябрдаги ПҚ-409-сонли қарори”ga asosan yani 2 mingdan ortiq ovoz to’plagan ammo g’olib bo’lmagan loyihalar uchun qo’shimcha 2023-yil uchun 7 161.65 mln so’m byudjetdan ajratilgan.

Biz Buxoro viloyati Shofirkon tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar ularga berilgan ovozlar hamda har bir g’olib bo’lgan loyiha uchun ajratilgan mablag’lar haqida o’rganib chiqib quyidagi jadvalga 2021-2023-yil ma’lumotlarini ovozlar soni ketma-ketligida umumlashtirdik.

**4-jadval**

**Buxoro viloyati Shofirkon tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi**[2]

| T/r | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi) | Jami to‘plagan ovozlar soni | Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘ miqdori (mln so’m) |
|---|---|---|---|

[4] https://openbudget.uz/boards/reports

| | | | |
|---|---|---|---|
| **2021-yil** | | | |
| 1. | Hokimyat oldiga 40 metrlik bayroq qurish | 653 | 250,00 |
| 2. | Tuman markazida piyodalar yo'lakchasini tashkil etish | 642 | 190,00 |
| 3. | Tuman markazidagi ko'p qavatli uylarni ta'mirlash | 642 | 400,00 |
| 4. | Qalmaqon mfy istiqlol va Navro'z ko'chalarini asfaltlashtirish | 600 | 350,00 |
| 5. | Bog'iafzal MFY So'fiyon qishlog'idagi qabriston atrofini devor bilan o'rash | 469 | 300,00 |
| **2022-yil** | | | |
| 1. | Shofirkon tuman 11-umumta'lim maktabi ta'mirtalab. Maktab binolarini ta'mirlash zarur. Issiqlik tizimi, yorug'lik tizimi, pol qismi, tom qismi, eshik va derazalar yaroqsiz holga kelgan | 4810 | 1150,00 |
| **2.** | 13-IDUM hududi mini o'yingoh(stadion, voleybol va baskedbol maydonchasi) qurish | 4538 | 700,00 |
| **3.** | Kalmaqon mahalla fuqarolar yig'iniga Maxalla guzari qurish. | 4365 | 800,00 |
| **4.** | Iskogare kishlogiga 200 metr chukurlikda tik kuduk kazish (axoli tomarkasini sugorish uchun 200 metr chukurlikda tik<br><br>kuduk kazish .350 metr masofadan elektr liniya tortib kelish .transformator urnatish ishlari | 4352 | 800,00 |
| 5. | Shofirkon tuman Guliston mahalla fuqarolar yig'ini Asbobon va Yobusxur kishloklari 3 km ichki yullarini tamirlash. | 4064 | 1000,00 |
| 6. | Shofirkon tuman Tibbiyot birlashmasiga qarashli, Do'rmen MFY hududidagi Oilaviy shifokorlik punkti binosini joriy ta'mirlash. | 3291 | 500,00 |
| 7. | Maktabni atrofini temir panjara bilan o'rab olish, qo'shimcha ikkita darvoza o'rnatish, qorovulxona qurish. | 3155 | 850,00 |
| 8. | Tumandagi 31-maktabni binosini joriy tamirlash. | 3138 | 1000,00 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 9. | 44-maktabda ukuvchilar va ukituvchilar ovkatlanishlari uchun oshxona mavjud emas. Ota-onalar tomonidan talab tushmoqda. | 2382 | 600,00 |
| 10. | Shofirkon tuman 19-umumta’lim maktabini kapital ta’mirlash. | 2269 | 900,00 |
| 11. | Shofirkon tuman Zarchabek MFY Navoiy ko‘chasidagi 33-37-39-43-44-45-46-47-ko‘p qavatli uylar fasad qismini kirish yo‘laklari betonlashtirish va 12*5 o‘lchamli yangi tandirxona qurish. | 2184 | 420,00 |
| 12. | Buxoro viloyat, Shofirkon tumanidagi 13 - ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi 1976 - yil qurilgan, sinf xonalarning pol qismi allaqachon cho'kishni boshlagan. Ya'ni yaroqlilik muddati o'tib ketgan. | 2170 | 400,00 |
| 13. | Tumandagi Barkamol avlod bolalar maktabi binosi va atrofini joriy ta’mirlash. | 1800 | 150,00 |
| 14. | 2-5-6-7-10-12-13-15-21-22-28-29-32-38 davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yangidan tashqi hojatxona qurish. | 1688 | 450,00 |
| 15. | Tumandagi 14 ta maktablarda kuzatuv kamera bo‘lmaganligi sababli o’rnatish. | 1687 | 644,00 |
| 16. | Shofirkon markazidagi 1-maktab juda yomon ahvolga kelib qolgan. Derazalari, koridorlari, yo'laklar, tashqi fasadi juda ham ta'mirga muhtoj! Farzandlarimiz uchun qulay sharoitlar, shinam va issiq | 1657 | 900,00 |
| 17. | Shofirkon tuman Navoiy ko‘chasida joylashgan ko‘p qavatli uylarning piyodalar yo‘lakchasi qurish, ayvoon, tandir qurish, | 1606 | 600,00 |
| 18. | Shofirkon tumanidagi 28-son umumta’lim maktabini ta’mirlash va binoga yoshlar va ayollar uchun fitnes klub tashkil etish. | 1588 | 644,00 |
| 19. | Navbahor mfy Navbahor 2 qishlog‘ining yo‘lini asfaltlashtirish zarur,yozda chang, qishda loy bo‘lib ketadi. | 1484 | 400,00 |
| 20. | Savrak Mfy Quyi savrak ko‘chasini 1.5 km masofani asphalt qilish | 1417 | 500,00 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **2023yil** | | | |
| 1. | Yuqori Yuqsun ichki ko'chalariga asfalt yotqizish. 4 km | 8292 | 900,00 |
| 2. | Nurafshon MFY Navbur qishlog' | 7438 | 1320,00 |
| 3. | Shofirkon tuman Iskogare kishlogi Arablar kuchasiga axoli tomorkalarini sugorish uchun 200 metr chukurlikda tik kuduk kazish transfarmotr | 6489 | 700,00 |
| 4. | 11-umumta'lim maktabida ta'lim sifatini oshirish maksadida zamonaviy interaktiv doskalar va kuzatuv kameralarini urnatish kerak. O'kuvchi partalari yaroksiz xolga kelgan. Yangi partalar bilan ta'minlash zarur. | 5561 | 1200,00 |
| 5. | Buxoro viloyati Shofirkon tumani Iskogare Oilaviy shifokorlik punktini(OSHP) zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlash | 5521 | 1000,00 |
| 6. | 13 - IDUM moddiy texnik bazani yangilash uchun 20 dona 86" li interaktiv doska, 1 dona elektrgenerator Hyundai DHY75KSE 60 kvt, 20 dona Acer monoblok komplekt va rangli printer | 5359 | 1320,00 |
| 7. | Shofirkon tuman 55-IDUMda 60 o'rinli qo'shimcha o'quv binosi qurish | 5191 | 1200,00 |
| 8. | Shofirkon tuman 38-IDUMni mukammal ta'mirlash | 5178 | 1189,00 |
| 9. | Shofirkon tumanidagi 9 - maktabni mukammal ta'mirlash va eshik direzalarni yangilash | 4844 | 1200,00 |
| 10. | Tumandagi 31-son umumta'lim maktab atrofini temir panjara bilan o'rash, Maktab xovlisini betonlashtirish, oshxona va xojatxonasini ta'mirlash | 4794 | 1200,00 |
| 11. | 3- IDUM maktabni kapital ta'mirlash va sport maydonini ta'mirlash | 4757 | 1000,00 |
| 12. | Shofirkon tumanidagi 36-umumiy o'rta ta'lim maktabini mukammal ta'mirlash | 4728 | 1200,00 |
| 13. | Tumandagi 41 sonli umumta'lim maktabni mukammal ta'mirlash zarur | 4397 | 1200,00 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 14. | Tuman markazidagi Motamsaro ona haykali va atrofini tamirlash | 4181 | 1000,00 |
| 15. | Tumandagi Markaziy o'yingoxni joriy ta'mirlash va jixozlab atrofini obodonlashtirish | 4179 | 1200,00 |
| 16. | **Boshqalar** | **37141** | **10940** |

4-jadval orqali Buxoro viloyati Shofirkon tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi bilan tanishib chiqadigan bo'lsak 2021-yilda tumanda jami 5 ta loyiha tashabbusli budjetlashtirish tadbirida g'olib deb topilgan bo'lib unda eng yuqori 653 ta ovoz bilan "Hokimyat oldiga 40 metrlik bayroq qurish" loyihasi g'olib bo'lgan va bu loyihaga 250 mln so'm mablag' ajratilgan. G'olib bo'lgan loyihalardan eng past ball olgan loyiha "Bogʻiafzal MFY Soʻfiyon qishlogʻidagi qabriston atrofini devor bilan oʻrash" bo'lib 469 ta ovoz to'plagan va 300 mln so'm mablag' ajratilgan. 2022 yilda ikkita bosqichni qo'shib hisoblaganda jami 20 ta loyiha eng ko'p ovoz to'plab 2021 yilga qaraganda 4 marotaba ko'p loyiha moliyalashtirilgan. Bunda eng yuqori ovoz bilan "Shofirkon tuman 11-umumta'lim maktabi ta'mirtalab. Maktab binolarini ta'mirlash zarur. Issiqlik tizimi, yorugʻlik tizimi, pol qismi, tom qismi, eshik va derazalar yaroqsiz holga kelganlarni tamirlash" loyihasi 4810 ta ovoz to'plab 1150 mln so'mlik mablag'ga loyihani amalga oshirgan. G'olib bo'lgan loyihalardan eng past ball (1417) olgan loyiha "Savrak Mfy Quyi savrak koʻchasini 1.5 km masofani asphalt qilish" bo'lib bu loyihaga 500 mln so'm mablag' ajratilgan. 2023 yilga kelib esa jami 2 bosqichdan 26 ta loyiha g'olib deb topilib 2022 yilga qaraganda 6 ta loyihaga koʻp pul ajratilgan. Shulardan 2022 yilning 1-mavsumiga qadar onlayn, oflayn hamda sms orqali ovozlar berilgan bo'lsa 2022-yilning 2-mavsumidan boshlab to'liq sms orqali ovozlar yig'ilgan. Bu mavsumda eng yuqori ovoz to'plab g'olib bo'lgan loyiha "Yuqori Yuqsun ichki koʻchalariga asfalt yotqizish. 4 km" bo'lib bu loyiha 8292 ta ovoz to'plagan va loyihani moliyalashtirish uchun 900 mln so'm mablag' ajratilgan. G'olib loyihalar ichida eng past ball to'plagan loyiha "Shofirkon tumanidagi 29-son umumta'lim maktabining eshik va dezalarini almashtirish pol qismini toʻliq almashtirish" bo'lib 2016 ta ovoz to'plagan bunga esa 1000 mln mablag' ajratilgan.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi 4 ta jadval malumotlaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak har bir mavsum uchun ajratilgan pul mablag'lari, ovozlar soni va loyihalar soni ham deyarli hammasi yildan yilga o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Tashabbusli byudjetlashtirish jarayonining ilk bosqichi 2021-yilda bo'lganligi sababli ushbu yilda eng yuqori ovoz to'plagan loyiha hattoki 1 000 ta ham ovoz yig'masdan g'olib bo'lgan. Keyinchalik ushbu ko'rsatkichlar bir necha barobar yuqorilab ketganligini guvohi bo'ldik. Bunday bo'lishiga asosiy sabablaridan biri malum bir hudud fuqarolari tomonidan turlicha har xil ko'p loyihalar emas eng asosiy bo'lgan yagona loyihani kiritishlari va shu loyiha uchun ovoz to'plash bo'lsa boshqa bir tomondan tashabbusli byudjet saytiga qoyilgan loyihalar o'rtasidagi raqobat muhiti kuchli ekanligi hamda 2022-yilga kelib aholining «Tashabbusli budjet» loyihasiga boʻlgan qiziqishi keskin ortganligi sababli ham ovozlar yuqori ko'rsatkichlarda o'sib borgan. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida 2021-2023 yillarda jami 51 ta loyiha moliyalashtirilib tumandagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilingan. Xulosa sifatida yana shuni ta'kidlash mumkinki

«Tashabbusli budjet» bu birinchidan, aholini ijtimoiy muammolarini yechishning yagona yo‘li bo‘lmasa ham, biroq bu loyiha aholimizni uzoq yillardan beri qiynab kelayotgan ijtimoiy muammolarni hal etishda hamjihatlik bilan harakat qilishni, jamoaviy qarorlar qabul qilishni, birgalikda harakat qilib maqsadga erishish texnologiyalarini o‘rgatsa, ikkinchidan, jamoatchilik nazoratini kuchayishiga, mahalliy deputatlarni faollashuviga hamda aholini budjet mablag‘larini ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida taqsimlanishida faol ishtirok etishi va davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan yanada samaraliroq foydalanishni o‘rgatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.

2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O‘quv qo ‘llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).

3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018

4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo ‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.

5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.

6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.

7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.

8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.

9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017

10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022

11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022

12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022

13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary …, 2022

14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.

15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.

16. Уроков У. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.

17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020

18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017

19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўкув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).

20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.

21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023

22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo 'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.

23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.

24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси" илмий электрон журнали. 2020.

25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления."Молия" илмий журнали. 2022.

26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.

27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).

28. Masharipov I.B. MODERNIZATION OF THE ELECTORAL SYSTEM IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. The Way of Science International scientific journal. 2020. 6 (76)